7. Elov D.A., Ochilov N.Ya. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish omillari va rivojlanish tamoyillari. Iqtisod va moliya ilmiy - amaliy jurnali. №8, 2013 - 47 b., Elov D.A., Ochilov N.Ya. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning xorij tajribasi. №10, 2013 - 45 b.
8. Import o’rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish davlat valuta zaxirasi chetga chiqishi oldini oladi – Mutaxassis bilan suhbat, https://kun.uz/90673853
9. Urinov, Bakhrom Jamoliddinovich (2020) "EUROPEAN STANDARDS FOR THE QUALITY OF EDUCATION.," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 7 , Article 77. Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss7/77

## O’ZBEKISTONDA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMATLARI SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIK MUHITINI TA’MINLASHDA BOSQICHMA BOSQICH RIVOJLANISH YO’LLARI: MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot yo’nalishi magistranti
Qushmatov Azizbek

***Annotatsiya:*** *ushbu tezisda mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish sohalarinining rivojlanishida olib borilayotgan islohotlar batafsil ko’rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud kamchiliklar va ular uchun maqbul yechimlar taklif qilinadi.*

***Kalit so’zlar:*** *aloqa, axborot, xizmat ko’rsatish, raqobatbardoshlik, mobil aloqa*

***Abstract:*** *in this thesis, the reforms carried out in the development of communication and information sectors in our country are considered in detail. Also, the existing shortcomings and optimal solutions for them are proposed.*

***Key words:*** *communication, information, service, competitiveness, mobile communication*

***Абстракт.*** *В данной дипломной работе подробно рассматриваются реформы, проводимые в сфере развития сферы связи и информации в нашей стране. Также предложены существующие недостатки и оптимальные пути их устранения.*

***Ключевые слова:*** *связь, информация, услуга, конкурентоспособность, мобильная связь.*

O‘zbekistonda aloqa va axborotlashtirish sohasi so‘nggi yillarda mamlakat telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan hukumat tashabbuslari tufayli sezilarli o‘sish va o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Tarixan bu sohada davlat korxonalari ustunlik qilgan, biroq liberallashtirish harakatlari asta-sekin xususiy sektor ishtiroki va investitsiyalari uchun imkoniyatlarni ochib berdi. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan turli farmon hamda qarorlar va ular orqali qilinayotgan ko’plab o’zgarishlar yuqoirda aytilganlarning isboti bo’la oladi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 7.03.2018-yildagi 185- sonli qaroriga[1] muvofiq, “…telekommunikatsiya tarmoqlarining barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlash, belgilangan standartlar va normativlarga muvofiq

ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, iste’molchilar huquqlarining himoya qilinishini ta’minlash” uchun ko’plab islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, O’zbekiston Republikasi Prezidentining 22.08.2022-yildagi PQ-357 sonli qaroriga[2] muvofiq, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar sohasida masofaviy ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo‘nalishida ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish hamda davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimlik organlarida va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda 214 ta axborot tizimi va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo’yicha ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilar bilan birga shuni ham qayd etib o’tish kerakki, so’nggi yillarda internetga ulanish va yuklash tezligi juda ham sezilarli o’sishga erishgan. Speedtest.net sayti ma’lumotlariga ko’ra, mobil tezlik bo’yicha 140dan ortiq davlatlar orasida 93-o’rinni egallagan(yuklab olish tezligi – 28.25mbps).[3] Shu bilan birga stat.uz sayti O’zbekiston ichki internet tezligining o’sishi, ayniqsa pandemiya (2020-yil)dan so’ng ancha yaxshilandi. (1-rasm)

| 5. O’zbekiston Respublikasi | 6. Qoraqalpog’iston Respublikasi | 7. Andijon | 8. Buxoro | 9. Jizzax | 10. Qashqadaryo | 11. Navoiy | 12. Namangan | 13. Samarqand | 14. Surxondaryo | 15. Sirdaryo | 16. Toshkent | 17. Farg’ona | 18. Xorazm | 19. Toshkent shahri |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 20. **120.3** | 21. 115.5 | 22. 111.0 | 23. 117.0 | 24. 115.9 | 25. 119.7 | 26. 115.4 | 27. 106.8 | 28. 115.3 | 29. 120.6 | 30. 123.8 | 31. 132.4 | 32. 115.6 | 33. 119.8 | 34. 123.0 |

**1-rasm.** O’zbekistonda 2022-yil 2-choragida internet tezligining(%hisobida) o’sish ko’rsatkichlari[4]

Har bir sohada bo’lgani kabi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida ham raqobatbardosh muhitni ta’minlashda ko’plab muammo va kamchiliklarga duch kelish mumkin. Quyida ularning ba’zilari keltirib o’tiladi.

1. Cheklangan raqobat muhiti. Davlatimizda aloqa va internet tezligi uchun kuchli raqobat hukm surmayotganligining o’ziyoq bir qancha davlatlar orasida internet tezligining pasayishiga hamda o’smasligiga zamin yaratyishi mumkin. [5] Bundan tashqari, bu sohada amalga oshirilishi mumkin bo’lgan innovatsiyalarga ham to’sqinlik qilishi hamda bozor dinamikasiga ta`sir qilishi mumkin.

2. Infratuzilmaning nomutanosib ravishda tuzilishi. Ya’ni qishloq hamda shahar hududlaridagi internetga ulanish tezligining bir xilda tashkil etilmaganligi. Qishloq va chekka hududlarda munosib infratuzilma mavjud bo‘lmasligi, raqobatga to‘sqinlik qilishi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin.

3. Iste’molchilarning mazkur xizmat ko’rsatish va ularning vakolatlari haqidagi cheklangan xabardoligi. Ko’pgina holatlarda aholi tezlikning yaxshilanishi bu so’nggi nuqta sifatida qabul qilishi hamda keyingi rivojlangan variantlardan bexabar qolishlarini kuzatish mumkin. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga oid davlat dasturlari ishlab chiqilganiga

qaramasdan, aholining bu borada ogohlantirishsiz qolishi ham raqibat muhitini rivojlanishdan to’sishi mumkin. [6]

4. Davlat ustunligi. Avvaldan ko’pgina sohalardagi kabi, axborot xizmatlari sohasida ham davlat aralashuvi va boshqaruvi eng olndingi o’rinda turgan. Xususiy sektorlarga keng imkoniyat berilayotganiga qaramasdan, aloqa va axborotlashitirish xizmatlari sohasi haligacha ko’p qismi davlat nazoratida qolishi, raqobat muhitini bo’g’ib qo’yishi mumkin.

Xo’sh, unda qanday yechim va takliflarni amalda qo’llash mumkin? Eng avvalo, shuni taklif qilish mumkinki, bozorning liberallashuvi, ya’ni bozor raqobatini rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borish va tegishli qarorlarni qabul qilish – aloqa va axborotlashitirish xizmatlari sohasida eng yaxshi qadam bo’lishi mumkin. Bu o’z ichiga xorojiy investitsiyalarni kiritishni rag’batlantirish hamda monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirishni ham o’z ichiga olishi mumkin. [7]

Shuningdek, normativ islohotlar olib borilishi ham sohada rivojlanish uchun katta zamin yaratishi mumkin. Ya’ni me’yoriy-huquqiy bazani soddalashtirish hamda modernizatsiya qilishi sohada yangi o’yinchilarning raqobatbardosh muhitni kuchayritishiga yordam beradi. [8] Va albatta infratuzilmaga sarmoya kiritish bilan bozorga kirishni kengaytirish hamda raqobatni rag’batlantirishga erishish mumkin bo’ladi. Yoki davlat-xususiy sherikchilik taklifini ham ko’rib chiqish mumkin.

Yana bir muhim takliflardan biri bu – iste'molchilarni o’qitish va himoya qilish: iste'molchilarni o’z huquqlari to’g’risida o’rgatish, mavjud xizmatlardan xabardorlikni oshirish, narxlar va xizmatlar sifatining shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yaratish iste'molchilarga ongli ravishda tanlov qilish va xizmat ko’rsatuvchi provayderlarni javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi.

Qo’shimcha tarzda yana shuni ham aytish kerakki, xususiylashtirish va diversifikatsiya, ya’ni davlat korxonalarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish va bozorni diversifikatsiya qilish – amaldagi ishtirokchilarning ustunligini kamaytirishi va raqobatni rag'batlantirishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali keng polosali internet, mobil xizmatlar va raqamli platformalar kabi yangi texnologiyalarga investitsiyalar xizmatlar taklifini oshirishi va bozorning yangi ishtirokchilari uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni yo’lga qo’yish taklifi. Xalqaro tashkilotlar va hamkorlar bilan hamkorlik – aloqa va axborot xizmatlari sohasida raqobatni rag’batlantirish uchun qimmatli tajriba, resurslar va ilg‘or tajribalarni taqdim etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, aloqa va axborotlashtirish sohasida halol raqobatni rag’batlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy islohotlar soha salohiyatini to‘liq ochib berish, innovatsiyalarni rag’batlantirish, iste’molchilarga ham, tadbirkorlik subyektlariga ham foyda keltirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni har tomonlama ko'rib chiqish, adolatli raqobatni rivojlantirishga qaratilgan yangi siyosatni joriy etish hamda tartibga soluvchi organlar va huquqni qo'llash mexanizmlarini kuchaytirish orqali O'zbekiston barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi qulay tartibga solish muhitini yaratishi mumkin

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**


1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 7.03.2018-yildagi 185- sonli qarori
2. O’zbekiston Republikasi Prezidentining 22.08.2022-yildagi PQ-357 sonli
3. www.speedtest.net sayti ma’lumotlaridan foydalanildi